INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Norboyeva Farangiz Alisher qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
1-kurs 3-24M guruh magistranti
e-mail: farangiznorboyeva3@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish usullarini yoritadi. O'quvchilarning nutqiy faoliyatini o'stirish orqali ularning og'zaki va yozma ifoda qobiliyatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada lingvistik ko'nikmalar va nutq madaniyati shakllanishi uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot muhimligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: bilim, badiiy asar, ifodali nutq, innovatsiya, nutq, notiq, metod, ko'nikma, kitob, kitobxon, ta'lim, tarbiya, o'quvchi, o'qituvchi, qobiliyat.

Annotation: This article is aimed at improving the methodology for developing speech culture among primary school students and highlights methods for enhancing students' communication skills. The possibilities for improving their oral and written expression abilities through the growth of their speech activities have been analyzed. The article emphasizes the importance of effective communication between the teacher and the student for the formation of linguistic skills and speech culture.

Keywords: knowledge, literary work, expressive speech, innovation, speech, speaker, method, skill, book, reader, education, upbringing, student, teacher, ability.

XXI asrda ta’lim sohasidagi tezkor o‘zgarishlar, yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi va o‘quv jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki nutq madaniyati bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Innovatsiya — bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llash va ta’lim samaradorligini oshirish bugungi kunning davr talabiga aylandi. Innovatsion ta’limda o‘quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, shu bilan birga o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faol aloqa yo‘lga qo‘yiladi.

Innovatsion ta’lim sharoitida nutq madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xosligi va murakkabligi, o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda til o‘rgatish metodikalarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy tafakkurini shakllantirish, ularda og‘zaki va yozma nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning fikrlash doirasi kengayadi, muloqot madaniyati shakllanadi.

Bizga ma’lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining oldida turgan muhim vazifalaridan biridir. Bu borada o‘qituvchining o‘rnini hech qanday vosita bosa olmaydi. O‘quvchilarning nutqini aniq va ravon shakllantirish, dunyoni anglatishda o‘qituvchi nutqining ham o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqi ustida ham mukammal ishlashi va darslarni tashkil qilishda o‘quvchilarni barkamol hamda har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun puxta bilimli, o‘z fikrini chiroyli, ifodali nutq qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilishi lozim. Savod o‘rgatish davridan boshlab o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga e’tibor qaratiladi. Bu borada o‘qish fani o‘quvchilarning nutqini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qish fanining asosiy vazifasi o‘quvchilarning nutqini to‘g‘ri, ongli, ravon va ifodali o‘qishga o‘rgatadi. O‘quvchi qancha ko‘p o‘qisa, uning nutq madaniyati rivojlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda badiiy adabiyotlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki o‘quvchi badiiy asarni avval ovoz chiqarib o‘qiydi va bu orqali nutq motorikalari sekin-astalik shakllanib boradi. Badiiy asarni o‘qishdan maqsad, uning mazmun-mohiyatini tushunish, ongli anglash va tafakkur etishdan iboratdir.O‘quvchilar o‘qigan asarining mazmunini so‘zlab berishadi va sinfdoshlari bilan o‘zaro muhokamaga kirishadi va bu orqali so‘z boyligini kengaytirish va nutqda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash qobiliyatlari shakllanadi. Bundan tashqari o‘quvchilar bu munozarada tushunarli talaffuz qilish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanib, eshittirish va o‘qitish jarayonida o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda she’riyat va tez aytishlarning ham ahamiyati kattadir. Bular yordamida o‘quvchilarda ovoz harakati va talaffuz mexanizmlari shakllanadi. Va shu bilan birga o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan muhabbatni oshiradi va yetuk kitobxonlarni kamol toptirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning nutqini boyitish, ravon va ifodali qilish asosiy vazifalaridan biridir. Bu esa bolalarning nafaqat o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki ularning kelajakda o‘z fikrini erkin va ravon ifodalashiga, ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi. “Bilim doimiy izlanishda kamol topadi” deb

bejiz aytilmagan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida avval nutq madaniyati paydo bo‘lib, shakllanadi. Keyin asta-sekinlik bilan rivojlanadi va go‘zal nutq sohibiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov.S. Nutq madaniyatini shakllantirish asoslari. Toshkent 2010-yil. O‘qituvchi nashriyoti.

2. Yo‘ldosheva.D. O‘qish va nutq madaniyati o‘rgatish metodikasi. Toshkent 2015-yil. Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Rahimova.S. Nutq madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni o‘qitish usullari. Toshkent 2018-yil. O‘zMU nashriyoti.

4. Xudoyberdiyev.I. Boshlang‘ich ta'limda nutq rivojlantirish metodlari. Samarqand 2019-yil. Zarafshon nashriyoti.